

**OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISHDAGI MUAMMO
VA YECHIMLARNI TAHLILI ASOSIDA OLDINI OLISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ И РЕШЕНИЙ ПРИ ПРЕСЕЧЕНИИ МАССОВЫХ
БЕСПОРЯДКОВ КАК ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ИХ ПРОФИЛАКТИКИ**

**ANALYSIS OF PROBLEMS AND SOLUTIONS IN SUPPRESSING MASS
DISORDERS AS A BASIS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS
OF THEIR PREVENTION**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Magistratura tinglovchisi
podpolkovnik **Ergashev Anvar Ashrafovich***

Annotatsiya: Ushbu maqola ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish jarayonida kuzatiladigan tizimli muammolar va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yondashuvlar evolyutsiyasini kompleks tahlil qiladi. Tadqiqot doirasida profilaktika tizimi, raqamli monitoring, jamoatchilik bilan hamkorlik, huquq-tartibot organlarining o'zaro integratsiyasi, psixologik omillar va tezkor boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi o'rganiladi. Maqola ommaviy tartibsizliklarni oldini olish jarayonida zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalarining qo'llanilishi va ularning amaliy natijalari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ommaviy tartibsizliklar, kuch tuzilmalar xodimlarining tayyorgarligi, huquqiy asoslar, ijtimoiy islohotlar, jamoatchilik ishtiroki, inson huquqlari, tinch namoyishlar, barqarorlik, xavfsizlik.

Аннотация: Статья посвящена комплексному анализу причин возникновения массовых беспорядков, проблем, возникающих при их пресечении, и современных подходов к повышению эффективности профилактических механизмов. В работе исследуются вопросы цифрового мониторинга, взаимодействия правоохранительных органов, психологических факторов, общественного участия, а также оптимизации системы оперативного управления. Представленные рекомендации направлены на повышение устойчивости общества к социальным потрясениям и минимизацию рисков эскалации конфликтов.

Ключевые слова: массовые беспорядки, подготовка сотрудников силовых структур, правовые основы, социальные реформы, участие

общественности, права человека, мирные демонстрации, стабильность, безопасность.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the root causes of mass disorders, the challenges encountered during their suppression, and the evolution of modern preventive strategies. The study examines digital monitoring systems, interagency coordination, psychological factors, public cooperation, and the optimization of operational management mechanisms. The proposed recommendations aim to enhance societal resilience to unrest and improve the effectiveness of preventing mass disorders.

Key words: mass disorders, training of law-enforcement personnel, legal foundations, social reforms, public participation human rights, peaceful demonstrations, stability, Security.

Kirish

Ommaviy tartibsizliklar zamonaviy jamiyatlar uchun eng jiddiy tahdidlaridan biri hisoblanadi. Ular siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy omillar ta'sirida vujudga kelib, qisqa fursatda keng miqyosli beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bugungi globallashuv va axborot erkinligi sharoitida kichik noroziliklar tezda ijtimoiy tarmoqlarda kuchaytiriladi, turli guruhlar tomonidan boshqariladi va natijada katta ommaviy tartibsizliklarga sabab bo'ladi.[1]

Ko'plab davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ommaviy tartibsizliklarning oldini olish ularni bartaraf etishdan ko'ra ancha samarali, ko'p kuch va vositalar hamda resurslar talab etmaydi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonning keyingi yillarda amalga oshirayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlari, ochiq jamiyat modeliga o'tish jarayoni, fuqarolarning faolligining oshishi demokratik rivojlanishning ijobiy ko'rsatkichidir. Biroq ochiqlik jarayonining tabiiy oqibati sifatida turli ijtimoiy noroziliklar, axborot bosimlari, manipulyativ xabarlar va tezkor global axborot almashinuvi muayyan darajada xavf omillarini ham yuzaga chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ommaviy tartibsizliklarning oldini olish masalasi nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari vazifasi, balki butun jamiyatning axborot xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va huquqiy madaniyat masalalariga qo'shib o'rganilishi zarur.[2]

Mazkur maqolaning maqsadi — ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonidagi muammolarni chuqur tahlil qilish, ularning ildiz sabablari asosida oldini olish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat va amaliy asoslarini belgilashdir. Buning uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi:

— ommaviy tartibsizliklar tushunchasi, shakllanish mexanizmlari va tipologiyasini tahlil qilish;

- tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash;
- xalqaro tajribalarni solishtirish va samarali modellarni o'rganish;
- sun'iy intellekt, monitoring tizimlari va raqamli texnologiyalarning kiritilishi orqali profilaktika samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish;
- O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan kompleks yechimlar va takliflarni ishlab chiqish.[3]

Ommaviy tartibsizliklarning ijtimoiy mohiyati jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning ochiq ko'rinishidir. Ular ijtimoiy norozilikning ma'lum bosqichga yetganidan dalolat beradi va o'zining nizoli guruhlarining faol ishtiroki, jamoat tartibining buzilishi, jismoniy va moddiy zarar yetkazilishi ehtimolining yuqoriligi, davlat institutlari bilan ochiq to'qnashuvlar, katta sonli olamonning emotsional harakatlari va boshqa xarakteristik belgilari bilan ajralib turadi.

Ushbu belgilar shuni ko'rsatadiki, ommaviy tartibsizliklar mohiyatan **ijtimoiy-psixologik jarayon** sifatida yuzaga chiqadi va uning ildizi jamiyatdagi chuqur tizimli muammolarga borib taqaladi.[4]

Ilmiy tadqiqotlar asosida **ommaviy** tartibsizliklarning shakllanishi odatda quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. **Yashirin bosqich** — norozilik ichki kayfiyat darajasida mavjud bo'ladi.
2. **Faollashuv bosqichi** — ijtimoiy tarmoqlarda muhokama kuchayadi, kichik guruhlar shakllanadi.
3. **Kengayish bosqichi** — jamoaga murojaatlar, chaqiriqlar, feyk xabarlar tarqaladi.
4. **O'tish bosqichi** — norozilik jismoniy yig'in shakliga o'tadi.
5. **Zo'ravonlik bosqichi** — tartibsizliklar avj oladi va jamoat xavfsizligiga bevosita tahdid soladi.

Har bir bosqichda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun turli yondashuvlar talab qilinadi. Bugungi kunda ommaviy tartibsizliklarning tezkorlik bilan kengayishiga **ijtimoiy tarmoqlar tezligi, feyk xabarlar, iqtisodiy nomutanosiblik, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik, huquqiy madaniyat pastligi** va boshqa omillarni sabab bo'lishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda kuch tuzilmalari o'rtasidagi koordinatsiya yetarli darajada tashkillashtirilmaganligi, monitoring tizimlarining mavjud emasligi yoki ishlamasligi, jamoatchilik bilan muloqotning sustligi, profilaktikaning tizimli yo'lga qo'yilmaganligi va boshqa omillar **muammolar** jarayonni murakkablashtiradi. Bu omillar har qanday davlatda ommaviy tartibsizliklarni samarali hal qilishni qiyinlashtiradi.[5]

Dunyo tajribasidan quyidagi xulosalar chiqarilgan:

Yevropa modeli — jamoatchilik bilan doimiy muloqot, mediatorlar va tinch yig'inlarni muvofiqlashtirish;

AQSh modeli — sun'iy intellekt asosidagi prediktiv tizimlar, dronlar va videokuzatuvlar;

Osiyo modeli — qat'iy tartib, texnologiyalar integratsiyasi va tinchlikni saqlashning markazlashtirilgan boshqaruvi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eng samarali strategiya — ushbu modellarning kompleks uyg'unlashtirilgan shakli.

Ommaviy tartibsizliklarning tez rivojlanishi ko'pincha axborot oqimlari ustidan nazoratning zaifligi bilan bog'liq. Ko'plab mamlakatlarda tartibsizliklar boshlanishidan oldin hududdagi ijtimoiy kayfiyat yetarlicha o'rganilmaydi, xavf signallariga vaqtida e'tibor qaratilmaydi, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan chaqiriqlar monitoring qilinmaydi va natijada, ommaviy tartibsizliklar boshlanganidan keyin ularni boshqarish va bartaraf etish murakkablashadi.[6]

Kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik (koordinatsiya)ning yetishmasligi ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida Ichki Ishlar Vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulotda vaziyatlar Vazirligi xodimlari va mahalla institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqa sust bo'lishi jiddiy muammolardan biridir. Bu bevosita qaror qabul qilishning kechikishiga va kuchlar resurslarining samarasiz taqsimlashiga sabab bo'ladi.

Ko'plab davlatlarda ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishiga **jamoatchilik bilan profilaktik muloqotning sustligi** va ijtimoiy dialogning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi sabab bo'ladi. Bu sabablarni oldini olish va profilaktikani rivojlantirishning asosiy omillari sifatida fuqarolar shikoyatlarining eshutilishi, yoshlar bilan tizimli ishlash, mahalla va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni mastahkamni yo'lga qo'yish bilan ijobiy natijalarga erishish mumkindir.[7]

Ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyatsiyalar Fake-news, botlar, tashqi axborot bosimlari va provokatsion chaqiriqlar zamonaviy tartibsizliklar "katalizatori"ga aylangan. Bu jarayon tez va xabarlardan iborat bo'lgani uchun uni vaqtida to'xtatish maxsus texnologik yondashuvlarni talab qiladi.

Xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlarga nazar soladigan bo'lsak Yevropa Ittifoqi davlatlari "dialog politsiyasi" modelidan foydalanadi. Bu yondashuv norozilar bilan muzokara, mediatorlar ishtiroki, tinch yig'inlarni qo'llab-quvvatlash va eskalatsiyani oldini olish tamoyillariga asoslanadi. Bu modelda kuch ishlatish oxirgi chora sifatida ko'riladi.

AQShda (**prediktiv xavfsizlik**) ommaviy tartibsizliklarni oldindan aniqlash uchun sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar analizlari, harakatlar trayektoriyasi modeli va hududlar bo'yicha xavf reytingi kabi texnologiyalar qo'llaniladi. Bu tizimlar ommaviy tartibsizlikning boshlanishidan oldin harakatlanish vektorlarini aniqlay oladi. [8]

Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlarda ommaviy tartibsizliklar deyarli uchramaydi. Buning asosiy sabablari axborot madaniyati darajasi yuqoriligi,

fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi, kuchli monitoring infratuzilmasi, o'zaro hurmat va huquqiy madaniyat yuqoriligidadir.

BMTning "Human Rights and Law Enforcement" standarti va YXHTning "Peaceful Assembly Guidelines" hujjatlari ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda kuch ishlatmaslik, jamoatchilik bilan muloqotni ustuvorigi, jamoaviy xavfsizlikni kafolatlash va axborot shaffofligi tamoyillarini ustun qo'yadi.

Kelajakda ommaviy tartibsizliklarning oldini olishda aqilli kameralar (face-recognition), dronlar, onlayn monitoringi, geolokatsiya asosidagi fuqarolar to'planishi joylari, prediktiv algoritmlar va boshqa texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular tahdidni oldindan aniqlash imkonini beradi.[9]

Profilaktika uchun **jamoatchilik bilan doimiy muloqot tizimini yaratishda** aholi murojaatlari bo'yicha tezkor platformalar, mahalla yig'inlari, yoshlarga oid ijtimoiy loyihalar, NNTlar bilan hamkorlik kabi mexanizmlar samarali natija beradi.

Ommaviy tartibsizliklarning asosiy ildizlari ijtimoiy muhitda yotgani uchun **ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda** ishsizlikni kamaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini kuchaytirish, ochiqlik siyosatini qo'llash eng muhim profilaktika hisoblanadi.

Huquqiy me'yorlarni takomillashtirishda esa tinch yig'inlar, norozilik aksiyalarini tashkil etish tartibi shaffof va aniq belgilangan bo'lishi lozim. Ogohlantirish tizimi va kuch ishlatish standartlari xalqaro normalarga moslashtirilishi kerak.

Ommaviy tartibsizliklarni oldini olishga jalb etiladigan kuch tuzilmalari uchun zamonaviy treninglar eskalatsiyani kamaytirish texnikalari, psixologik tayyorgarlik, muzokara yuritish, krizis-menejment, xavfsiz kuch ishlatish standartlari va shu kabi treninglarni o'z ichiga olishi lozim.[10]

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishdagi mavjud ayrim muammolarni tahlil qilamiz. Bulardan tashkiliy-boshqaruv muammolari ommaviy tartibsizliklarni samarali bartaraf etishda eng katta to'siqlardan biri hisoblanadi. Ulardan eng muhimlari **vazirliklararo** (kuch tuzulmalararo) **koordinatsiya (hamkorlik)ning yo'lga qo'yilmaganligidir. Vazirliklararo** koordinatsiya yetarli bo'lmaganda, bir nechta mas'ul organ o'rtasida axborot almashinuvi, qaror qabul qilish va kuch va vositalarni taqsimlash tezkorlik bilan amalga oshirilmaydi. Masalan, IIV, Milliy gvardiya va Favqulodda Vaziyatlar vazirligi xizmatining ma'lum bir hududdagi vaziyat bo'yicha axboroti o'z vaqtida boshqaruv markaziga yetib bormaydi, qarorlar kechikadi va kuchlar noto'g'ri joylashtiriladi. Natijada, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish samarasi pasayadi, kuch va vositalar noto'g'ri ishlatiladi va olamon bilan muloqot murakkablashadi. Yana bir muhim muammolardan biri **tezkor boshqaruvning markazlashmaganligidir**. Boshqaruv markazi markazlashtirilmagan yoki qaror qabul qiluvchi idoralar yoki rahbarlar o'zaro bir to'xtamga kelaolmasligi,

tezkor, yagona va to'g'ri qaror ishlab chiqilmasligiga sabab bo'ladi. Bu esa har bir vazirliklarning mustaqil harakat qilishiga, taktik harakatlarning muvofiqlashtirilmasligi olib keladi. Natijasida ommaviy tartibsizliklarning oldini olishga muammolar, qiyinchiliklar hamda shaxsiy tarkib (xodim)lar orasida jaroxatlanishlar va halok bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda vazifalarni taqsimlashda kuch tuzulmalar shaxsiy taskibining mo'ljallanishi, tayyorgarligi, tajribasi va malakasidan kelib chiqib vazifalar belgilanishi yoki taqsimlanishi darkor.

Kuchlarning noto'g'ri joylashtirilishi ham muammo hisoblanadi: ba'zi hududlarda kuch va vositalar ortiqcha, ba'zi hududlarda esa yetishmaydi. Geografik sharoitlar, odamlar oqimi va evakuatsiya yo'llari inobatga olinmagan holatlar ommaviy tartibsizliklarni keskin tus olishi va rivojlanishi tezlashadi.

Axborot-kommunikatsiyada uchraydigan muammolardan biri rasmiy axborotning kechikishidir. Ommaviy tartibsizliklar paytida rasmiy axborot yetarlicha tez tarqamaydi. Shu tufayli ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on xabarlar tez tarqaladi va olomon hamda yaqin atrofdagi aholining xatti-harakatlarini keskinlashtiradi. Norasmiy kanallar orqali tarqalgan noto'g'ri ma'lumotlar olomonni boshqaradi va ularning agressiv xatti-harakatlarini kuchaytiradi.

Vaziyatni yoritishda jurnalistlar bilan ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf etishda ishtirok etadigan kuch tuzulmalar o'rtasida tezkor hamkorlikni yo'qligi va **OAV bilan hamkorlikda ishlash tajribasining yetarli emasligi** ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf etishga salbiy tasvir ko'rsatadi va vaziyatni noto'g'ri baholanishiga olib keladi.

Psixologik va ijtimoiy omillar va huquq-tartibot organlarining **olomon psixologiyasining yetarlicha o'rganilmaganligi**, odamlar jamoaviy sharoitda individual qarorlarga emas, balki olomon psixologiyasiga asoslangan reflekslarga tayanganligi uchun xavf-xatar oshadi. Huquq-tartibot organlari xodimlarining bu xatti-harakatlarni oldindan hisobga olmasa ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf etishda yanada qiyin vaziyatlarga olib kelishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarni tashkillashtirayotgan kichik guruhlar ommaviy tartibsizliklarni qasddan kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, olomon orasida keskinlashuv va agressiya kuchayadi, bu esa ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf etishga ishtirok etayotgan kuch tuzilmalarning samarali harakatini qiyinlashtiradi. Huquq-tartibot organlari xodimlarining olomon bilan muloqot qilish, muzokara olib borish va stressga bardosh berish bo'yicha yetarli tayyorgarligi bo'lmasa, qarorlar sifati pasayadi va jarayon nazoratsiz qoladi.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishdagi mavjud muammolar:

ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida ishtirok etayotgan **idoralarning yetarli darajada koordinatsiyalashmaganligi**, axborot oqimining sustligi;

ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida ishtirok etayotgan **idoralarning** idoralar o'rtasida yagona boshqaruv markazining yo'qligi vaziyatni yanada murakkablashtiradi;

rasmiy ma'lumotning kechikishi ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on axborotning tez tarqalishiga sabab bo'ladi;

ko'plab tizimlarda xavf indikatorlari mavjud bo'lsa-da, ular real vaqtda ishlamaydi;

ommaviy tartibsizliklar ko'pincha kutilmagan tarzda yuzaga kelgani sababli kuchlar to'liq safarbar bo'la olmaydi.

Ommaviy tartibsizliklarning oldini olish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar:

a) profilaktika tizimini modernizatsiya qilish sohasida:

- jamiyatdagi norozilik indikatorlarini erta aniqlash;
- ijtimoiy tadqiqotlar asosida risk darajasini belgilash;
- mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini kengaytirish.

b) raqamli monitoring tizimlarini joriy etish sohasida:

- sun'iy intellekt asosidagi tahdidlarni aniqlash tizimlari;
- real vaqt rejimida ishlovchi monitoring markazlari;
- ijtimoiy tarmoqlardagi keskinlik indeksini baholash.

d) Jamoatchilikga samarali va o'z vaqtida to'g'ri ma'lumotlarni yetkazish sohasida:

- tezkor, qisqa va ishonchli rasmiy axborot;
- NNTlar bilan hamkorlik;
- aholining xabardorlik madaniyatini oshirish.
- Kuch tuzilmalar (**Idoralararo**) o'rtasida hamkorlikni integratsiyani

kuchaytirish:

- yagona boshqaruv markazini yaratish;
- qo'shma mashg'ulotlar;
- favqulodda holatlarda avtomatik komandalar tizimi.
- **olamonning psixologik holatini o'ganish va tahlil qilish yo'nalishida:**
- olomon psixologiyasi asosida kuchlar tayyorgarligi;
- muzokara texnikalarini joriy etish;
- ijtimoiy qo'rquvni kamaytiruvchi kommunikatsiya.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida ishtirok etayotgan **idoralarning yetarli darajada koordinatsiyalashmaganligi**, axborot oqimining

sustligi va olomon psixologiyasini hisobga olmagan holda qaror qabul qilish eng muhim muammolar sifatida ajralib turadi. Shu muammolarni bartaraf etish uchun:

- idoralararo yagona boshqaruv markazi va tezkor axborot almashinuvi tizimi yaratish;
- resurslarni hududiy jihatdan optimallashtirish;
- Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning psixologik tayyorgarligini oshirish zarur hisoblanadi. Bu chora-tadbirlar ommaviy tartibsizliklarni samarali bartaraf etish va oldini olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Ommaviy tartibsizliklar ko‘plab omillar sababli yuzaga keluvchi murakkab jarayon bo‘lib, ularni kuch bilan bartaraf etish ko‘p hollarda samarasiz, resurs talabchan va ijtimoiy salbiy oqibatlarga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun oldini olish tizimi — zamonaviy xavfsizlik siyosatining asosiy yo‘nalishidir.

Maqolada olib borilgan tahlillar quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Ommaviy tartibsizliklar oldini olish uchun kompleks yondashuv talab qilinadi.
2. Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt — erta aniqlashning asosiy vositasi.
3. Jamoatchilik bilan doimiy hamkorlik norozilikni kamaytiradi.
4. Kuchlar o‘rtasidagi integratsiya samaradorlikni oshiradi.
5. Psixologik yondashuvlar tinch yo‘l bilan barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Takliflar amaliyotga joriy etilganda, davlatning barqarorligi, jamiyatning xavfsizligi va ishonch muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida ishtirok etayotgan **idoralarning yetarli darajada koordinatsiyalashmaganligi**, axborot oqimining sustligi va olomon psixologiyasini hisobga olmagan holda qaror qabul qilish eng muhim muammolar sifatida ajralib turadi. Shu muammolarni bartaraf etish uchun:

- idoralararo yagona boshqaruv markazi va tezkor axborot almashinuvi tizimi yaratish;
- resurslarni hududiy jihatdan optimallashtirish;
- Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning psixologik tayyorgarligini oshirish zarur hisoblanadi. Bu chora-tadbirlar ommaviy tartibsizliklarni samarali bartaraf etish va oldini olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Quyidagi ro‘yxat ilmiy standartlarga moslashtirilgan (APA formatga yaqin):

1. Bauman, Z. (2019). *Liquid Modernity and Social Unrest*. London: Polity Press.

2. Reicher, S., & Stott, C. (2020). *Managing Crowds: Psychology, Strategy and Practice*. Cambridge University Press.
3. Castells, M. (2018). *Networks of Outrage and Hope: Social Movements in the Internet Age*. Oxford University Press.
4. Gurr, T. R. (2016). *Why Men Rebel*. Princeton University Press.
5. Waddington, P. A. J. (2017). *Public Order Policing: Theory and Practice*. Routledge.
6. Sherman, L., & Neyroud, P. (2021). Predictive Policing and Social Stability. *Journal of Security Studies*, 14(3), 45–67.
7. OECD Report (2022). *Social Cohesion and Civil Unrest Indicators*. Paris: OECD Publishing.
8. Stott, C., Radburn, M. (2020). Crowd Psychology and Public Disorder. *Annual Review of Criminology*, 3, 183–201.
9. Xalqaro Polis Akademiyasi. (2021). *Ommaviy tartibsizliklar profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar*. Ankara.
10. Karimov, Sh. (2023). Zamonaviy xavfsizlik tizimida raqamli monitoringning o'rni. *O'zbekiston huquqiy tadqiqotlari jurnali*, 2(1), 55–63.